

SHAMSUDDIN SAMARQANDIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Raymberdiyev Ahad Shuxratovich

Anotatsiya: *ushbu maqolada alloma qiroat olimlaridan biri hisoblangan mashhur olim Shamsuddin Samarqandiy hayoti va uning ilmiy faoliyati, yozgan asarlari haqida atroflicha malumotlar berilgan.*

Kalit soʻzlar: *samarqandiy, alloma, tajvid, qiroat, as-sanoiy.*

Shamsuddin Samarqandiy nomi bilan mashhur boʻlgan olimning toʻliq ismi – Shamsuddin Muhammad ibn Mahmud ibn Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy boʻlib, oʻz zamonasining mashhur Qurʼon va boshqa ilmlar olimlaridan biri sifatida butun musulmon olamida tanilgan. Uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida, asosan, arab manbalarida maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, allomaning tavvalud sanasi namalumdir. Manbalarda Hamadonda tugʻilgan, yana boshqa manbalarda, asli Hamadonlik, Bagʻdodda tavallud topgani qayd etilgan. Tugʻilgan sanasi taxminan 780/1378-yilda vafot etgan.

Shamsuddin Samarqandiy asli samarqandlik boʻlib, umrining koʻp qismi Bagʻdodda oʻtgan. Alloma hayoti haqidagi maʼlumotlar bizgacha juda ham oz yetib kelgan. Manbalarda uning biror bir mansab sohibi boʻlganligi yoki hukumatda tutgan oʻrni haqida xabar berilmagan. Mavjud manbalarda qayerda vafot etgani va qayerga dafn etilgani haqidagi maʼlumotlar ham berilmagan. Keltirilgan maʼlumotlarda allomaning tarjimai holidan koʻra, uning qoldirgan ilmiy merosi – asarlarining xabari bilan cheklanilgan. Bir qancha manbalarda u kishini fors boʻlgan deya taʼkidlangan.

Allomaning qiroat ilmida oʻz davrining yetuk allomasi boʻlib yetishishida ustozlarining hissalarini katta boʻlgan. Alloma qiroatdagi tajvid, Qurʼon tilovatidagi tayanch zeb berish, qatʼiyat va tartib qoidalari sirlarining har birini oʻsha davrning buyuk qorilari va qiroat borasidagi mashhur olimlardan tahsil olganligi manbalarda qayd etilgan. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar.

- Ibn Abd nomi bilan taniqli olim Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad,
- Ahmad ibn Ali ibn Ahmad ibn Fasih Koʻfiy, Devoniy,
- Solih ibn Abdulloh Asadiy,
- Ahmad ibn Muhammad ibn Mahruq,
- Sayyid Rizo Husayn ibn Qatoda ibn Mazruʼ, va boshqa oʻz davrining bir qator yirik ulomalaridan tahsil oladi.

Shamsuddin Samarqandiyning bizga maʼlum boʻlgan shogirdlaridan:

Qurʼon, lugʻat, nahv, fiqh va boshqa ilmlar bilan mashgʻul boʻlgan

Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Jalol Abu Tohir ibn Shams ibn Jalol ibn Jalol Xo‘jandiydir (719/1319).

Qur‘on tilovati va hanafiy mazhabining fiqhiy usullari bo‘yicha As‘ad ibn Muhammad ibn Mahmud Jaloliddin Shiroziy ham allomadan ta‘lim olgan.

Allomaning boshqa shogirdlari ham juda ko‘p bo‘lgan, ammo mavjud manbalarda ular haqida ma‘lumot berilmagan.

Shamsuddin Samarqandiy qobiliyatli, o‘z ishiⁿⁱning ustasi bo‘lib, yetuk qiroat va tajvid olimi bo‘lgan. Alloma asosan, qiroat va Qur‘on to‘g‘risidagi asarlarni yod bilgan. U qoldirgan ilmiy meroslarda bizga ma‘lum bo‘lgan asarlari: kichik kitobcha bo‘lgan „As-sanoi“ („Mahorat“), jadvali bilan yozilgan „Al-qiroatu-s-sab“ („Yetti xil qiroat“), „Kashfu-l-asror fi rasmi masohifi-l-amsor“ („Turli shaharlardagi mushaflarning yozuvidagi sirlarning kashf etilishi“), „At-tajrid fi-t-tajvid“ („Tajviddagi tajrid“), nazm qilib bitilgan „Al-aqdu-l-farid fi nazmi-t-tajrid“ („Tajrid nazmidagi yagona marjon“), „Al-mabsut fi-l-qiroati-s-sab“ („Yetti xil qiroatdagi mufassal ma‘lumot“), „Izohu-l-xavo-lif fi rasmi masohifi-s-savolif“ („Salaflar tomonidan ko‘chirilgan Mushaf nusxalaridagi xatlarning turli-tumanligiga izoh“), „Izohu-l-qavoid fi-l-muammo“ („Muammo janri haqidagi qoidalarga izoh“), „Ravhu-l-mu-rid fi sharhi-l-‘iqdi-l-farid“ („Yagona marjon sharhidagi shogirdning shodligi“), „Al-qasidatu-l-foiha fi tajvidi-l-fotiha“ („Fotiha tajvidida keng (yoqimli) qasida“) va uning sharhidan iborat bo‘lgan kitoblardir.

Alloma ushbu kitoblarni har tomonlama chuqur mulohaza bilan bitib, o‘z davrining yirikolimi darajasiga yetishgan.

Allomaning yozgan asarlari qiroat ilmini o‘rganishlikda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Eng zarur ilmlardan biri bo‘lgan qiroat ilmi Alloh taoloning kalomini o‘z o‘rniga qo‘yib, tartib bilan to‘g‘ri o‘qishga xizmat qiladi. olim bu tuyg‘uni his qilib qiroatga tegishli bo‘lgan mana shunday asarlarni bitishga jazm qilgan.

Alloma temuriylar davri, aynan Amir Temur hukmronlik qilgan vaqtda yashab ijod etgan. Amir Temur allomaning asarlarini mutolaa qilib chiqqan va As-sanoi‘ (Mahorat) asari haqida: „Alloma kitobda Mus‘hafni o‘qishda lozim bo‘ladigan yo‘l-yo‘riqlarni o‘z xati bilan yozgan. Ular bir necha mingga yetadi va u (kitobcha) qiroatga taalluqli bo‘lgan muhim foydalarni o‘z ichiga olgan“ degan. Alloma o‘zining ilmiy meroslarida Qur‘on lug‘atlarini, kalimalarining tahriri harflariⁿⁱ maxraj va sonlarini bilish, so‘zlar, oyatlar, suralar, bo‘limlar haqida va barcha qoidalarni o‘rganib ijod qilgan.

Afsuski, bizdagi ma‘lumotlarda allomaning asarlari saqlanib qolganmi, yo‘qmi va mavjudlari qayerda saqlanayotgani to‘g‘risida keltirilmagan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Zirikliy. Al-a'lom. J. 7. Doru-l-ilm li-l-malayin, 2002. — B.87.
2. Ibn Jazariy. G'oyatu-n-nihoya fi tabaqoti-l-qurro. J. 2. — Bayrut. Doru-l-kutubi-l-ilmiya, 2006. — B. 227.
3. Qarang. G'oyatu-n-nihoya. J. 2. — B. 260; Kashfu-z-zunun. — B. 1152, 1582.
4. Ibn Jazariy. G'oyatu-n-nihoya fi tabaqoti-l-qurro. J. 2. — Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiyya, 2006. — B. 228.
4. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (53), 66-71.
5. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. *Международные научные исследования*, (1), 161-163.
6. Исраилова, М. Н. (2022, March). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In *Конференция состоялась* (Vol. 5, p. 414).
7. Israilova, M. N. (2017). New Pedagogical Technologies of Studying Latin in Medical Schools. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
8. Israilova, M. N., & Yuldasheva, D. Y. (2021). PECULIARITIES OF TEACHING LATIN LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
9. Исраилова, М. Н. (2021, November). ТЕХНОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 2).
10. Исраилова, М. Н., Юлдашева, Д. Ю., & Сайфуллаева, Л. С. (2021). Педагогические технологии на занятиях по латинскому языку в медицинском вузе. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 47-49.
11. Исраилова, М. Н. (2019). Принципы преподавания латинского языка в медицинском вузе. *Academy*, (12 (51)), 58-60.
12. Исраилова, М. Н. (2022, August). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ: Исраилова Махсуда Нигматуллаевна, Доцент кафедры Латинского языка ТГСИ. In *Научно-практическая конференция*.
13. Исраилова, М. Н., & Сайфуллаева, Л. С. (2022, August). ТИББИЁТ ТАЪЛИМ МУАССАСИДА ЛОТИН ТИЛИНИ ЎЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ-МАДАНИЙ РИВОЖЛАНИШ: Исраилова МН доцент PhD, Сайфуллаева ЛС ассистент Тошкент давлат стоматология институти Sayfullayevalola1@gmail.com. In *Научно-практическая конференция*.

14. Исраилова, М. Н. (2022, August). ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ИНТЕЛЕКТУАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ: Исраилова МН, доц. PhD Ташкентский Государственный Стоматологический Институт [oydinboymatova80@ gmail. com](mailto:oydinboymatova80@gmail.com). In *Научно-практическая конференция*.

15. Исраилова, М. Н. (2018). ИННОВАЦИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 68-69).

16. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Юлдашева, Д. Ю. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 422-425.

17. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Сайфуллаева, Л. С. (2022). ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 426-429.

18. Исмоилова, М. Н., & Кобиров, К. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 60-62.

19. Исраилова, М., Сайфуллаева, Л., & Дулдулова, Н. (2023). Lotin tilini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni. *Общество и инновации*, 4(2), 148-151.

20. Nig'matillayevna, I. M. (2022). BENEFITS OF USING VIDEO IN ELT. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 6, 7-12.

21. Nigmatullaevna, I. M. THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING MEDICAL LATIN.

22. жери Контакттыктык, Ж. Кызыл-Кыя шаарынын участкалык шайлоо комиссияларынын сапаттык курамы. *Восток*, 14, 1.

23. Беляева, Н. Л. (2021). ШКОЛЬНАЯ СЛУЖБА ПРИМИРЕНИЯ КАК СОВРЕМЕННАЯ ФОРМА ПРОФИЛАКТИКИ. In *БЕЗОПАСНОЕ ДЕТСТВО КАК ПРАВОВОЙ И СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ КОНЦЕПТ* (pp. 27-30).